



ERTAK JANRINING TAHLILI

Akramova Aziza Akramovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand

davlat universiteti Filologiya

fakulteti IV bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodi janri bo‘lgan ertaklarning mazmuni va tahlili o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: ertak, janr ,syujet, kompozitsiya, g‘oya, mazmun, konflikt, sehirli, maishiy.

Ertaklar – har bir xalqning madaniy merosida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ular nafaqat bolalar uchun mo‘ljallangan oddiy hikoyalar, balki xalqning tarixiy, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarini, dunyoqarashini aks ettiradigan boy adabiy janrdir. Ertaklar asosan fantastik xususiyatlari, odatiy qahramonlari va tasvirlangan voqealar orqali ajralib turadi. Ularning tahlili esa faqatgina san'atkorlikni yoki estetik jihatlarni emas, balki xalqning tafakkuri, ruhiyatini va qadriyatlar tizimini chuqur anglashni taqozo etadi. Har bir ertak o‘z davri va jamiyatining g‘oyaviy, axloqiy va madaniy kontekstini o‘zida mujassam etadi.

ERTAK–bu xalq yoki muallif tomonidan yaratilgan, o‘ylab topilgan, fantastik yoki sarguzasht voqealarga asoslangan badiiy asardir. Ertaklar odatda o‘tmishda sodir bo‘lgan yoki bo‘lishi mumkin bo‘lgan hodisalarni tasvirlaydi , lekin ular real hayotdan ko‘ra ko‘proq tasavvur mahsuli bo‘ladi.



Har bir xalqning ertagi o'sha xalq tarixini, ma'naviy madaniy turmush tarzini, ichki dunyosini, imon- e'tiqodini boshqa elatlar bilan ijtimoiy munosabatlarini, urf-odatlarini, iqlm- sharoitlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Ertak tinglab yoki o'qib katta bo'lgan bolalarning dunyoqarashi kengroq bo'ladi, chunki ertaklar bolalarga yaxshilik va yovuzlik, mehnatkashlik va dangasalik, oqillik va hiylagarlik kabi hislatlarni o'rgatadi. Ertaklarning g'oyaviy maqsadi insonlarni yaxshilikka va murodga yetkazishdan iborat umidbaxsh g'oya bilan yakunlanadi.

Ertak janri obrazlar talqini, g'oyaviy mazmuni va konflikti, syujet va kompozitsiyasi, uydirmalarning o'rni va vazifasi, tili va uslubiga ko'ra, shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehirli ertaklar, maishiy ertaklarga bo'linadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar- hayvonlar asosiy qahramon bo'lib, insondagi hususiyatlar hayvonlarga ko'chiriladi va hayvonlar badiiy jonlantiriladi. ("Quyov va she'r", "Bo'ri va tulki")

Sehirli ertaklar- bu tipdagi ertaklar hayoliy uydirma asosiga qurilganligi, insonning hayoliy tasavvur tushunchalarini ifodalab kelishi bilan boshqa ertaklardan farq qiladi ("Zumrad va Qimmat", "Ochil dasturxon")

Maishiy ertaklarning mazmuni bevosita real hayotga bog'liqdir. Ularda real ijtimoiy voqelik hayotiy uydirma asosida tasvirlanadi, hayotiy real kishilar bosh qahramon bo'lib keladi ("Uch og'a ini botirlar", "Mardikor yigit").

Shoiralar va yozuvchilar xalq orasida mashhur bo'lgan ertaklar asosida adabiy ertaklar, dostonlar, qissalar va xayoliy hikoyalar yaratadilar. Ertaklar, shuningdek, badiiy va multiplikatsion filmlar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi, va ko'plab sahna asarlari ham shu ertaklar asosida sahnalashtiriladi. Xalqimizning "Ertaklar – yaxshilikka yetaklar" degan maqoli bejiz aytilmagan. Ertaklar orqali ota-onalar farzandlariga hayotiy saboqlarni



o'rgatib, axloqiy pand-nasihatlar beradi, shuningdek, bolalarning nutqini rivojlantirishda va ularga mehr-muhabbat ko'rsatishda yordam beradi. Bola ulg'aygan sari, ertaklarning hajmi kattalashadi va ularning mazmuni, mantiqiy strukturalari yanada murakkablashib boradi. Shuningdek, ertaklar nafaqat axloqiy o'g'itlarni, balki farzandlarining ruhiy va aqliy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ular bolalarga turli xil shaxsiyatlar, voqealar va dunyoqarashlarni tanishtirishga yordam beradi. Ertaklarning ta'sirida bolalarda hayotga muhabbat, oilaga va ota-onaga mehr, do'stu yorga sadoqat, kelajakka umid, yaxshilik va adolat g'oyalari shakllanadi. Ertaklar, bolalar uchun nafaqat qiziqarli voqealar va ajablanarli shaxsiyatlar bilan to'la bo'lib, balki ular o'zlarining axloqiy tamoyillarini va turmush tarzini ham ko'rsatadi. Har bir ertakda yaxshilik yomonlikka qarshi kurashadi, adolat va haqiqat g'alaba qozonadi, bu esa bolalarga ijtimoiy axloqiy qadriyatlarni o'rgatadi. Ular, o'z navbatida, bu tushunchalarni hayotlariga tatbiq etishga harakat qilishadi, bu esa jamiyatda yanada hurmatli va mehribon insonlar shakllanishiga olib keladi. Shunday qilib, ertaklar faqat bolalarning tashqi dunyo bilan aloqalarini shakllantirmasdan, balki ularning ichki dunyosini ham boyitadi.

Dunyo bolalari aka-uka Grimmlar, Gans Xristian Andersen va Sharl Pero kabi mashhur ertakchi yozuvchilarning asarlarini tinglab va o'qib ulg'aygan. Hozirgi kunda ham "Etik kiygan mushuk", "Qor qirolichasi", "Qizil qalpoqcha", "Xitoy imperatorining yangi kiyimlari", "To'rt do'st" va boshqa ko'plab ertaklarni bilmaydigan yoki o'qimagan odamni uchratish juda qiyin. Bu mashhur ertaklar bolalarga faqat qiziqarli voqealar taqdim etib qolmay, balki ularda axloqiy qadriyatlar, do'stlik, sadoqat va adolat tushunchalarini ham shakllantiradi. Andersenning "Oleo Lukoe" ismli ertakchisi har kuni bolalar yotog'iga kirib, ularga mo'jizaviy va qiziqarli ertaklar aytib berishini tasvirolovchi hikoyasi, ko'plab bolalarning o'zlariga shunday ertakchi bo'lishni orzu qilishiga sabab bo'lgan.



Bunday orzularni ro'yobga chiqarish uchun ota-onalar farzandlariga turli xil qiziqarli, ibratli va didaktik ertaklarni bilishlari, ularni ta'sirchan va jonli tarzda aytib yoki o'qib bera olishlari kerak. Farzandlar uchun eng sevimli va mukammal ertakchi bo'lish esa ota-onalar uchun juda katta faxr va mas'uliyatdir. Shu tariqa, ertaklar bolalarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni hayotga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Ertaklarning mazmuni, ularni o'qish yoki aytish uslubi bolalarning axloqiy, estetik va hissiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar va katta yoshdagi insonlar bolalarga ertaklar orqali hayotiy saboqlar berish bilan birga, ularni do'stlik, sevgi va hurmat kabi qadriyatlar bilan tanishtiradilar.

Xulosa qilib aytganda, xalq og'zaki ijodi bo'lgan ertak janrini o'rganishda ertakning mavzu jihatdan bir necha guruhga bo'linganini ko'rdik va bu ertaklarni bolalarga ta'sirini ko'rib chiqdik. Ertak -o'quvchining ma'naviy dunyosi boyitib boradi va insoniy fazilatlarini yuksaltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. –T.: Fan, 1964
2. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. –T.: 1999.
3. O'zbek xalq ijodi. O'zbek xalq ertaklari. Gulpari. –T.: Cho'lpon, 1969.
4. O'zbek xalq ertaklari. Ikki jildlik. 2-tom. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1964.
5. Imomov K. O'zbek xalq ertaklari \ O'zbek folklorining epik janrlari. –T.: Fan, 1981.
6. Imomov K. O'zbek xalq prozasi. –T.: Fan, 1991.